

Sattorova umida Xudoyberdiyevna

Buxoro viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi

G'ijduvon tumani XTB tasarrufidagi

10- umumta'lim maktabi Fizika fani o'qituvchisi

Shamsuddinov Ravshan Boboqulovich

texnologiya fani o'qituvchisi

Anatatsiya: *Fizika va texnologiya darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash shakl va usullarini aniqlash; -Ilg'or pedagogik texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirish ko'rsatkichlarini baholash mezonlarini ishlab chiqish haqida ushbu maqolada so'z boradi.*

Ka lit so'zlar: *Moddiy texnik ta'minot,darsning mazmuni,kaspiy salohiyat,fizika va texnologiya fanlari bog'liqligi.*

Yangi tahrirdagi 2020-yil 20-sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi qonunda ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalgam oshirishning asosiy me'yoriy, dasturiy xujjatlari bo'lmish o'quv rejaları namunaviy fan dasturlari, yangi avlod darsliklari, o'quv uslubiy qo'llanmalar ta'lim mazmuni va darajasiga qo'yiladigan talablarni aks ettiruvchi Davlat ta'lim standartlari fan va ta'limning eng so'nggi yutuqlari asosida qanchalik takomillashtirilmasin o'quv jarayoni va uni tashkil etishning moddiy texnik ta'minoti qanchalik mustahkamlanmasin, modernizatsiya qilinmasin, olinadigan pirovard natija oxir oqibat ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, dars mazmuni va sifat samaradorligini ta'minlovchi o'qituvchi – murabbiylarning kasbiy bilimi, ko'nikma malakasiga, ijodkorligiga, tashabbuskorligi, pedagogik mahorati va intellektual salohiyatiga, o'quvchilarni fan bo'yicha bilimlarni egallashiga qiziqтира olishi va eng zarur intilish qobiliyatlarini ro'yobga chiqara olish salohiyatlariga bog'liq bo'lib qolaveradi. ³ Fizika darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali dars samaradorligiga erishishga oid ilmiy – metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.Har bir darsni kompetensiyaviy asoslarda olib boorish,o'quvchilarga hoyotish ko'nikmallar shakllantirgan holda kaspiy yo'naltirishdan iborat.

QIZIQARLI FIZIKAVIY MASALALAR

1.Mashhur matematik va fizik olimdan shogirtlaringiz nechta deb so'rabdilar:

Pifagor:- Shaogirtlarimning yarmi metematekani, $\frac{1}{4}$ tabiatni (fizikani)o'rganishyapti.Ularning $\frac{1}{7}$ biri vaqtini mushohada yuritishga sarflayapti,qolgan qismini 3 ta qiz tashkil etadi.



Diqqat savol Pifagorning shogirtlari nechta?

Javob: $14x+7x+4x+84=28x$ $25x+84=28x$ $84=28x-25x$ $84=3x$ $x=28$

Tekshirish: $14+7+4+3=28$ ta

2-masala: Bir chumoli daraxtga chiqib ketyapti. Daraxtning uzunligi 100 metr. Chumoli bir kunda 5 metr ko'tariladi va uxlab turguncha 4 metr orqaga qaytib qoladi.

Diqqat savol: Aytingchi chumoli daraxtning tepasiga necha kunga chiqadi.

Javob: Chumoli 1 kunda 5 metr yursa yana 4 metr orqaga qaytsa bir kunda 1 metr yuradi degan xulosaga kelamiz, lekin chumoli oxirgi kunda 5 metr masofani bosibo'tadi. $100-5=95+1=96$ Chumoli 96 kunda darsxt tepasida bo'ladi.



3-masala: Biri 500 vatt, ikkinchisi 1000 vatt quvvatli elektr choynaklarning qaysi biri suv qaynatganda elektr energiyasini tejaydi.

Yuqoridagi masalalarni yechish da texnologiya faniga murojaat qilamiz. O'quvchilarning bilim salohiyatini oshirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun fizika fanidan egallagan bilimlarimizdan foydalanib 2 ta idishga 1-500 vattlik 2- 1000 vattlik elektr choynaklar yasaymiz va bu choynaklarga suv qaynatganda 1000 vattlik choynak tez roq qaynashini bilib olamiz.

Elektr choynaklarni qaynatish davomida o'quvchilarga texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiramiz.

Texnologiya darslarida amaliy mashg'ulotlar bajarish orqali o'quvchilar ko'nikmalarini oshirish.

O'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli hamda ishbop o'yinlarning ahamiyati ko'rsatilgan.

Laboratoriya tajribalarini o'quvchilar ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda ishlov beriladigan materiallarning xossalari bilan, asboblarning tuzilishi, jihozlar va 10 boshqalar bilan tanishish maqsadida bajaradilar. Bu tajribalar laboratoriya ishlari o'rtasida tashkil qilinadi. Laboratoriya ishlari qiyinligi o'quvchilarning yoshiga va mavjud bo'lib moddiy bazaga qarab har xil bo'lishi mumkin. **Masalan:** yog'ochni homlik va qattqlikni sinash o'quvchilarning qo'lidan keladi. Ular hozirgi zamon priborlari va moslamalardan foydalanganligi ma'qul. Bunday ishlarni bajarishda eng muxim o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilimlardan foydalanishdir. Agar laboratoriya ishlari unumli mehnat bilan bog'liq bo'lsa o'quvchilarning ularga qiziqishi ortadi.



Masalan: o'quvchilarga mazkur metalning qattqligini shunchaki topish emas balki yasaladigan detal' uchun tegishli qattqlikdagi zagatovka tanlashni ham topshirish maqsadga muvofiqdir. Tokarlik stanogini o'rganishga kirishishda o'quvchilar o'tkirlash burchaklari normativlarga mos kelishni aniqlash uchun uglomer yordamida keskich geometriyasini tekshirishni laboratoriya ishi sifatida bajarishlari mumkin. Odatda laboratoriya ishlari praktikum shaklida tashkil qilinadi, ammo ularni frontal yo'l bilan ham o'tkazish mumkin. Praktikum shaklidagi laboratoriya ishlarida o'quvchilar zvenolarga bo'linadi zvenodagi o'quvchilar soni tegishli jihozlar va laboratoriya tajribalarini o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnati bilan didaktik bog'lash imkoniyatlariga qarab aniqlanadi.²

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Txorjevskiy "Mehnat ta'lim metodikasi" T "O'qituvchi" 1987 y
2. P.Senemikin "Maktab ustaxonalarida asboblari tayyorlash" T- "O'qituvchi" 1990y
3. "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" 23.09.2020 y Lex.uz